

YURTIMIZDAGI TA'LIM VA NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLAR

Ibroximova Oygul

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi 1-kurs talabasi

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O'zbekistonda maktabda o'qish majburiy hisoblanadi.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori mavjud bo'lib u Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son qarori ijrosini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha nodavlat sektorning salmog'ini kengaytirish borasida tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi ko'plab qarorlar qabul qilgan.

Mustaqillik tufayli xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi. Ertangi kunimiz egalari bo'lgan yosh avlodni kamolga yetkazish uchun ta'lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan inson kapitalini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida sifat ko'rsatkichini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni

bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ma'lumki yurtimizda 2017-2019-yillardagi nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, pullik ta'limni shakllantirish bo'yicha islohotlar bo'lib, ushbu sohaga keng imkoniyatlar berildi.

O'quv markaz rahbari va tashkilotchilari o'quvchilar va ularning ota-onalariga qulaylik va afzalliklarni yanada ko'proq yaratib berish, o'quvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini erta yoshdan aniqlash, kasbga yo'naltirishda aniq, tabiiy, horijiy, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi qiziqishlarini aniqlash maqsadida "Fergana school" xususiy maktabini ham ochishdi.

Hozirgi kunda bu maktabda 30 nafardan ortiq pedagoglar 430 nafar o'quvchiga ta'lim berib kelmoqdalar. Bir oylik to'lovi-2 million 200 ming so'mni tashkil qiladi. Har bir sinfda o'quvchi yoshlar bilan alohida ishlash imkoniyatining borligi tadqiqot olib borilgan xususiy maktablarning eng muhim yutuqlaridan biri sanaladi. Muntazam ravishda fanlarni o'zlashtirish doirasida o'quvchilarni "Rangli hudud" orqali tabaqalarga ajratilishi ular orasidagi sog'lom raqobat muhitini, sovrindorlar, natijadorlar qatoriga chiqish uchun intiluvchan, talabgor, tirishqoq bo'lgan holda uzluksiz dars va darslardan keyingi qo'shimcha mashg'ulotlarga ixtiyoriy va majburiy qatnashishga undaydi. Har ikkala xususiy maktab issiq ovqat va transport ta'minotiga ega. Shuningdek, sinflarda o'quvchilar sonining 15-20 nafardan oshmasligi o'qituvchiga o'tilgan dars mashg'ulotlarini barobar so'rash imkoniyatini beradi. Hamda, tajribali, malakali pedagoglarning xususiy ta'lim muassasalariga tanlov asosida qabul qilinishi ushbu muassasalarning sifati oshib borishida, sog'lom raqobat muhitini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashga alohida ahamiyat berilayotganligi esa Vatanning ertangi kuni bo'lgan yoshlarning har tamonlamma yetuk inson bo'lib kamol topishidagi muhim omillardan biri sanaladi.

Ma'lumki, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini 50 taga yetkazish vazifasi belgilangan. 2022 yilning o'tgan davri mobaynida 13 nodavlat oliy ta'lim tashkilotiga litsenziya berildi va ayni payt umumiy son 47 tani tashkil etmoqda. Hozirgacha nodavlat oliy ta'lim tashkiloti bo'lmagan Qashqadaryo, Namangan, Samarqand viloyatlarda ham joriy yil xususiy institutlar ish boshladi

- YUNESKO tahliliga ko'ra, dunyo bo'ylab olti million talaba chet elda tahsil oladi va bu raqam 2025 yilga borib sakkiz millionga yetishi mumkin. 2015 yil o'zbekistonlik 28 ming yosh xorijda ta'lim olgan bo'lsa, bugun bu son 53 mingga yetdi.

Yildan yilga xorijiy davlatlarda ta'lim olayotgan yoshlarimiz soni oshib bormoqda. Ularning ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish jarayonini zamon talabiga moslashtirish, ortiqcha qog'ozbozlik va ovoragarchilikning oldini olish maqsadida ayni jarayon ham takomillashtirildi. Mazkur xizmatni Yagona interaktiv davlat xizmati portali orqali amalga oshirish tizimi joriy qilindi. Taqdim etiladigan hujjatlar soni 5 tadan 2 taga, arizani ko'rib chiqish muddati 30 kundan 10 kunga qisqartirildi.

XULOSA

O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanish jarayonida xususiy ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bir qator omillar bilan uzviy bog'liq.

Birinchidan, mustaqillikdan so'ng bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ta'lim sohasida ham xususiy sektor shakllanishi tabiiy edi. Ikkinchidan, oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talabning keskin oshishi natijasida, davlat OTMlari bu ehtiyojni to'liq qondira olmadi. Uchinchidan, aholi daromadlarining oshishi, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qodir bo'lganlarning sonini ko'payishiga xizmat qildi. Farg'ona viloyatidagi xususiy maktablar mazkur sohadagi ijobiy tajriba sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar natijasida, samarali ta'lim berishning quyidagi yondashuvlar aniqlandi:

- xalqaro ta'lim tizimi talablariga javob beruvchi, zamonaviy uslublarga asoslangan o'quv jarayonini yo'lga qo'yilganligi;

-- ushbu maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilg'or pedagogik uslublar;

- til o'rganishga alohida e'tibor va o'quvchilarning shaxsiy rivojiga yo'naltirilgan tamoyillar.